

Date: 7<sup>th</sup> July-2026

## NUTQIY AKT VA BADIY AXBOROT: PRAGMATIK YONDASHUV

**Akramova Surayo Renatovna,**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
dotsenti (PhD)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada badiiy diskursda nutqiy aktlarning axborot uzatish imkoniyatlari pragmatik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Nutqiy aktlarning faqat kommunikativ harakat sifatidagi emas, balki badiiy matnning mazmuniy va estetik qatlamlarini shakllantiruvchi pragmatik vosita sifatidagi o'zni yoritiladi. Tadqiqotda nutqiy aktlar orqali yuzaga chiqadigan psixologik, ijtimoiy va lingvomadaniy axborotning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, Jamol Kamol she'riyati misolida nutqiy aktlarning lirik qahramon ruhiyati, muallif pozitsiyasi va milliy qadriyatlarni ifodalashdagi informatsion salohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari badiiy diskurs pragmatikasini hamda nutqiy akt nazariyasining badiiy matn tahlilidagi imkoniyatlarini kengroq yoritishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** nutqiy akt, badiiy diskurs, badiiy axborot, pragmatika, informatsion qiymat, lirik diskurs, lingvomadaniyat, Jamol Kamol, kommunikativ maqsad, pragmatik tahlil.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikda nutqiy akt nazariyasi til birliklarini faqat grammatik yoki semantik jihatdan emas, balki ularning kommunikativ va pragmatik funksiyalari nuqtayi nazaridan o'rganishga keng imkoniyat yaratmoqda. Tilning inson faoliyati bilan uzviy bog'liqligi nutqni kommunikativ hodisa sifatida talqin etishni taqozo etadi. Shu bois nutqiy aktlar bugungi kunda pragmalingvistika, diskurs tahlili hamda lingvomadaniyat yo'nalishlarining muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Badiiy diskursda nutqiy aktlar alohida estetik va kommunikativ vazifani bajaradi. Ular voqea-hodisalarni bayon etish bilangina cheklanmay, personajlarning ruhiy olami, ijtimoiy munosabatlari, muallifning estetik qarashlari hamda milliy-madaniy qadriyatlarni ifodalovchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli badiiy matnda nutqiy aktlarning mazmuniy imkoniyatlarini faqat axborot uzatish bilan chegaralash yetarli emas. Har bir nutqiy harakat matnning yashirin semantik qatlamlarini ochishda va o'quvchida muayyan pragmatik ta'sirni yuzaga keltirishda faol ishtirok etadi. Badiiy axborotning o'ziga xosligi shundaki, u ko'pincha bevosita emas, balki obraz, ramz, emotsional bo'yoqdor birliklar, murojaat shakllari va kontekst orqali ifodalanadi. Natijada nutqiy aktlar nafaqat voqelik haqida ma'lumot beradi, balki so'zlovchining ichki kechinmalari, qadriyatlari, baholash mezonlari hamda muallifning g'oyaviy-estetik pozitsiyasini ham aks ettiradi. Ayniqsa, she'riy diskursda bunday axborot ko'proq implitsit xarakter kasb etib, o'quvchining pragmatik va madaniy bilimlari asosida anglashiladi. Mazkur tadqiqotning maqsadi badiiy diskursda nutqiy aktlarning badiiy axborotni shakllantirishdagi o'rnini pragmatik yondashuv asosida tahlil qilish hamda Jamol Kamol she'riyati misolida ularning informatsion imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.



Date: 7<sup>th</sup> July-2026



**Asosiy qism.** Pragmalingvistika til birliklarini ularning kommunikativ vazifasi va nutqiy vaziyat bilan bog'liq holda tadqiq etadi. Ushbu yo'nalishda nutqiy akt til orqali bajariladigan maqsadli harakat sifatida talqin qilinadi. Biroq badiiy diskursda nutqiy aktlarning funksiyasi real muloqotdagi vazifasidan ancha kengdir. Chunki badiiy matnda har bir nutqiy birlik nafaqat kommunikativ maqsadni amalga oshiradi, balki matnning mazmuniy, emotsional va estetik qatlamlarini shakllantirishda ham ishtirok etadi.

Badiiy axborotning asosiy xususiyati uning ko'p qatlamliligidadir. Muallif tomonidan yaratilgan nutqiy vaziyatda ifodalangan har bir murojaat, e'tirof, iltimos, ogohlantirish yoki sukutning o'zi ham o'quvchiga qo'shimcha pragmatik ma'lumot uzatadi. Shuning uchun badiiy diskursdagi axborotni faqat faktik mazmun bilan izohlash yetarli emas. Matnda yashiringan emotsional, baholovchi va lingvomadaniy ma'no ham badiiy axborotning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Nutqiy aktning informatsion imkoniyati, avvalo, uning pragmatik tabiati bilan belgilanadi. Har qanday nutqiy harakat muayyan kommunikativ niyat asosida yuzaga keladi va ayni paytda so'zlovchining shaxsiy munosabati, ruhiy holati hamda ijtimoiy mavqeini namoyon etadi. Badiiy matnda esa bu xususiyat yanada murakkablashadi. Chunki nutqiy akt orqali uzatilayotgan axborot bir vaqtning o'zida personaj xarakterini, voqelikka munosabatni, muallif konsepsiyasini va milliy madaniyat elementlarini ham ifodalaydi.

Shu nuqtayi nazardan nutqiy aktlarning badiiy axborotni shakllantirishdagi ishtirokini bir necha yo'nalishda kuzatish mumkin. Birinchidan, ular personajning psixologik holati haqida ma'lumot beradi. Ikkinchidan, personajlar o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarni ochib beradi. Uchinchidan, milliy urf-odatlar, axloqiy me'yorlar va madaniy qadriyatlarning matndagi ifodasini ta'minlaydi. Nihoyat, nutqiy aktlar muallifning estetik pozitsiyasi va badiiy g'oyasini o'quvchiga yetkazuvchi pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi.

Badiiy diskursda axborotning muhim qismi implitsit xarakterga ega bo'ladi. Muallif ko'pincha voqelikni bevosita bayon etmaydi, balki obraz, metafora, ramz yoki emotsional bo'yoqdor nutqiy birliklar vositasida ifodalaydi. Natijada o'quvchi matnni idrok etish jarayonida nutqiy aktlarning yashirin pragmatik ma'nolarini anglaydi va badiiy axborotni o'z bilim hamda tajribasi asosida talqin qiladi.

Lirik diskursda nutqiy aktlarning informatsion salohiyati tashqi kommunikativ vazifadan ko'ra ichki kechinmalarni ifodalash jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Lirik qahramonning nutqi ko'pincha muloqotga emas, balki o'z ruhiy olamiga qaratilgan bo'lsa-da, unda ifodalangan har bir nutqiy akt o'quvchiga muayyan badiiy axborotni yetkazadi. Shu sababli she'riy matn pragmatikasida nutqiy aktlar nafaqat kommunikativ birlik, balki estetik va semantik mazmunni tashkil etuvchi vosita sifatida ham qaraladi.

Jamol Kamol she'riyatida bunday xususiyatlar ayniqsa xotira, sog'inch va ona obraziga bag'ishlangan she'rlarda yaqqol kuzatiladi. Shoir quyidagi misralar orqali lirik qahramonning ichki kechinmalarini badiiy axborot darajasiga ko'taradi:

*Qo'zg'alur xotiralar,  
Tag'in tirnalur yaram.*

*Unda tin olib yotar,  
Jafokash onaginam...*

Mazkur parchada qo'llangan nutqiy akt tashqi shakliga ko'ra voqelikni bayon qiluvchi assertiv xarakterga ega. Biroq uning pragmatik mazmuni oddiy xabar berish bilan cheklanmaydi. Birinchi misradagi *"Qo'zg'alur xotiralar"* ifodasi lirik qahramon ongida o'tmish voqealarining qayta jonlanayotganini bildiradi. Bu yerda xotira psixologik jarayon sifatida talqin qilinish, o'quvchini qahramonning ichki olamiga olib kiradi. Demak, nutqiy aktning asosiy vazifasi voqeani bayon qilish emas, balki ruhiy holat haqida badiiy axborot hosil qilishdan iborat.

Ikkinchi misrada qo'llangan *"Tag'in tirnalur yaram"* birikmasi esa hissiy ta'sirni yanada kuchaytiradi. *"Tag'in"* leksemasi iztirobning takroriyligini ifodalab, og'riqning vaqt bilan yo'qolmaganini anglatadi. Natijada o'quvchi matndan faqat ma'lum bir holatni emas, balki lirik qahramonning davomli ruhiy iztirobini ham anglaydi. Bu esa nutqiy aktning psixologik axborotni shakllantirishdagi pragmatik imkoniyatini ko'rsatadi.

*"Unda tin olib yotar"* misrasi esa implitsit ma'no hosil qiluvchi pragmatik birlik sifatida e'tiborni tortadi. Shoir onaning vafot etganini bevosita aytmaydi, balki milliy nutq madaniyatiga xos evfemistik ifodadan foydalanadi. Bunday usul matnga emotsional ta'sirchanlik bag'ishlash bilan birga, marhumga nisbatan hurmat va ehtiromni ham ifodalaydi. Demak, mazkur nutqiy akt orqali o'quvchi nafaqat voqelikni, balki shu voqelikka bo'lgan munosabatni ham idrok etadi.

She'rning yakunidagi *"Jafokash onaginam"* murojaati badiiy axborotning aksiologik qatlamini yuzaga chiqaradi. *"Jafokash"* sifatlovchisi ona obrazini fidoyilik, sabr va mehr timsoli sifatida gavdalandiradi. *"Onaginam"* shakli esa yaqinlik, mehr va cheksiz ehtiromni ifodalovchi ekspressiv vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa bitta nutqiy akt orqali ona obrazi milliy tafakkurdagi muqaddas qadriyat sifatida talqin etiladi.

Ko'rinadiki, mazkur she'riy parcha pragmatik jihatdan ko'p qatlamli badiiy axborotni o'zida mujassamlashtirgan. Bir tomondan, u lirik qahramonning sog'inch va armon bilan kechayotgan ruhiy holatini ifodalasa, ikkinchi tomondan, ona obrazining milliy-madaniy mazmunini ochib beradi. Shu bilan birga, muallifning estetik pozitsiyasi ham bevosita emas, balki nutqiy aktlar orqali implitsit tarzda namoyon bo'ladi. Natijada nutqiy akt badiiy matnda faktik ma'lumot uzatuvchi birlik emas, balki psixologik, aksiologik va lingvomadaniy axborotni shakllantiruvchi pragmatik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, Jamol Kamol she'riyati misolida kuzatilgan nutqiy aktlar badiiy axborotning ko'p qatlamli tabiatini yaqqol namoyish etadi. Ularning pragmatik tahlili lirik matnda yashirin ma'nolarni ochishga, muallif konsepsiyasini aniqlashga hamda o'quvchi interpretatsiyasining lingvistik asoslarini belgilashga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, badiiy diskursda nutqiy aktlar faqat kommunikativ harakatni amalga oshiruvchi birlik emas, balki badiiy axborotni shakllantiruvchi muhim pragmatik vosita hisoblanadi. Ular orqali lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, personajlar o'rtasidagi munosabatlar, milliy-madaniy qadriyatlar hamda muallifning estetik pozitsiyasi ko'p qatlamli mazmun sifatida namoyon bo'ladi. Jamol Kamol she'riyati



Date: 7<sup>th</sup> July-2026

misolida olib borilgan tahlil nutqiy aktlarning implitsit axborotni yuzaga chiqarish va badiiy matnning pragmatik mazmunini shakllantirishdagi oʻrni muhim ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuv badiiy diskursni pragmalingsistik jihatdan tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda nutqiy akt nazariyasining oʻzbek tilshunosligidagi amaliy ahamiyatini yanada yoritishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Akramova S.R. Badiiy matnda nutqiy aktlarning antroposentrik talqini // *Ta'lim transformatsiyasi*. 2026. 3-son.  
<https://etjournal.buxdpi.uz/index.php/BuxDPI/issue/view/18/435>
2. Akramova S.R. Jamol Kamol she'riyatida ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlarning pragmatik xususiyatlari // *Ta'lim transformatsiyasi*. – 2026. – 3-son. –  
<https://etjournal.buxdpi.uz/index.php/BuxDPI/issue/view/18/440>
3. Hakimov M., Gʻoziyeva M. Pragmalingsistika asoslari. – Toshkent, 2020.
4. Mahmudov N. Til mavqeyi – el mavqeyi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2012.
5. Nurmonov A. Oʻzbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2002.
6. Safarov Sh. Pragmalingsistika. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.